



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Bekmuradova Dilnoza  
Pirimovna

Qashqadaryo XTXQTMOHM  
Pedagogika, psixologiya va ta'lim  
texnologiyalari kafedrasи katta o'qituvchisi

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNATGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAYYORLIGINING SHAKLLANISHI

**Annotatsiya.** Bog'cha yoshidagi bolalarmi mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Mehnatsevarlik ruhida tarbiyalangan bolalar xushmuomala, rostgo'y, kamtarin va mehnatsevar bo'lib yetishadi.

**Kalit so'zlar:** mehnatsevarlik, mehnat qilish, hayotiy ko'nikmalar, barkamol shaxs.

**Абстрактный.** Очень важно организовать детей детсадовского возраста в духе трудолюбия. Дети, воспитанные в духе трудолюбия, вырастают вежливыми, честными, скромными и трудолюбивыми.

**Ключевые слова:** трудолюбие, трудолюбие, жизненные навыки, всесторонне развитая личность.

**Abstract.** It is very important to organize kindergarten children in the spirit of hard work. Children raised in the spirit of hard work grow up polite, honest, modest and hardworking.

**Key words:** industriousness, industriousness, life skills, comprehensively developed personality.



Bolaning oila mehnatida ishtirok etishini odatga aylantirish ularda o‘zi tug‘ilib o‘sgan oilaning foydali a’zosi ekanligini anglash, o‘z mehnati natijasini ko‘rib mammun bo‘lish hissini tarbiyalaydi. Bunday oilada o‘sgan bolalar xushmuomala, rostgo‘y, kamtarin, mehnatsevar va omilkor bo‘lib yetishadi.

Ayniqsa, o‘zbek oilasidagi farzandlar ota-onalariga va kattalarga ergashib, 3-4 yoshidan mehnat qilishga odatlanib boradi. 6-7 yoshi qishloq bolalari ota-onasiga yaqindan yordam berish malakasiga ega bo‘ladi. Bu hol ularning jismonan sog‘lom o‘sishlarida, kelajakda barkamol shaxs bo‘lib shakllanishlarida muhim omil bosqichini o‘taydi. Shuningdek, mehnat jarayonida bolalarda hayotiy ko‘nikmalar bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar hosil bo‘ladi. Bolalarnini mehnat jarayonida iroda, chidamlilik, qa’tiyan intizom, mehribonlik, do‘stlik kabi xususiyatlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Bolalarning mehnat faoliyatlarini o‘zida qampagan mashg‘ulotlar asosan bog‘cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo‘lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar bilan o‘tkaziladigan cifatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish ishtiyoqi tug‘iladi. Kattalarning mehnat faoliyatlariga taqlid qilish dastavval bolalarning o‘yinlarida namoyon bo‘ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o‘zlarining o‘yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun xapakat qila boshladilar. Masalan.: qiz bolalar onalari kir yuvayotganda ayrim kichikroq narsalarni (dastrumolchalarni,paypoqchalarni) chayishda qatnashadilar. Uy va xovlilarni yig‘ishtirib supurishga, o‘g‘il bolalar esa otasi bajarayotgan ishda qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarni mehnatining natijasiga qarab emas, balki mehnat jarayonining o‘ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning ishiga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bolalar kuchlari etadigan ishlarni bajarayotganlarida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mexnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajaradigan ishlarini kattalarning o‘zlarini bir pasda qilib qo‘yishlari mumkin degan ma’no kelib chiqadi. SHarq xalqida bir maqol bor: “Bolaga ish buyur, ketidan o‘zing yugur”. Bu juda to‘g‘ri, hayotiy gap. Bolalarga biron yumush buyurilganda, uni qanday bajarayotganliklaridan ko‘z-qulqoq bo‘lib turish kerak, degan ma’noni bildiradi.Lekin ko‘pchilik noto‘g‘ri izohlaydi. “Yosh bola ishni eplay olmaydi,o‘zing borib boshqatdan shu ishni bajarishinga to‘g‘ri keladi” kabi.

Bolalarda xususan, kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida hali mehnat malakalari yo‘q, qo‘l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Ana shuning uchun bolalar qasddan yoki anqovliklaridan - emas balki eplay olmasliklaridan biron narsani tushirib sindirib yuborishlari mumkin. Ana shunday "falokat" yuz bergen paytda bolani "anqov,



ko‘zingga qapacang bo‘lmaydimi” deb urishish yoki koyish yaramaydi. Buning o‘rniga bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko‘rsatib berish lozim.

Bog‘cha yoshidagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyuştirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo‘lib mehnat qilishda tarbiyachi hap bir bolaga ma’lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Ana shu tariqa bolalar jips jamoa bo‘lib mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Masalan, katta guruh bolalari jamoa bo‘lib navbatchilik qiladilar. Bunda bir bola stolga dasturxon yozib chiqsa, ikkinchisi qoshiq va vilkalarni qo‘yib chiqadi, uchinchi bola esa stulchalarni qo‘yib chiqsa, to‘rtinchi bola stolga nonlarni qo‘yib chiqishi mumkin. Bog‘chada navbatchilikka o‘rgangan bolalar oilada ham yordamlashadigan bo‘ladilar.

Umuman, o‘rta va katta yoshdagi bog‘cha bolalariga oilada kuchlari etadigan mehnat topshiriqlarini berish kerak. Bu ularni mehnatsevarlikka tarbiyalashda va ularda ayrim mehnat malakalari hosil bo‘lishi uchun juda katta imkoniyatlар yaratadi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etmagan bolani keyinchalik mehnatga jalb qilish juda qiyin bo‘ladi. Bog‘chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma-xildir. Masalan, tabiat burchagidagi jonivor yoki o‘simpliklarni parvarish qilish, bog‘cha hovlisida ishslash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar. SHuni ham aytib o‘tish kerakki, kichik yoshdagi bog‘cha bolalari o‘zlarining mehnat faoliyatlarini hali yo‘lga qo‘ya olmaydilar. SHuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan, ya’ni o‘simpliklarga suv qo‘yish, baliqlarga ovqat berish, hovliga suv sepish va shu kabilar bilan shug‘ullanadilar.

O‘rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o‘yindan batamom

farqlab unga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, ya’ni mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun mehnat qilish lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy-ro‘zgor ishlariga zo‘r ishtyoq bilan yondashadilar, kichkintoylar uchun qog‘ozdan, kartondan, faner va plastilindan turli o‘ynichoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama ya’ni ham jismoniy, ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda kata ta’sir qiladi.

Bog‘cha bolalari biron o‘yin, ta’lim yoki mehnat faoliyatlarini bilan mashg‘ul bo‘lar ekanlar, ular harakatlarining asosida ma’lum motivlar, ya’ni ularni harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kichik bog‘cha yoshidagi bolalarning xatti-harakatlari ko‘proq shu xatti-harakatlar amalga oshirilayotgan sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Ular xatti-harakat motivlarini anglab ham etmaydilar.

Shuning uchun ko‘pincha o‘zlariga mutlaqo hisobot bermay ma’lum bir vaziyatda u yoki bu xatti-harakatni amalga oshira boshlaydilar.



Maktabgacha tarbiya yoshi davrining o‘ziga xos tomonlaridan biri bolalar mehnatining o‘yin bilan bog‘liqligidir. O‘yin jarayonidagi biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ikkinci tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni o‘yin shakliga aylantirishadi. Shu bilan birga o‘zining xususiyati, mazmuni, yuzaga kelish sababiga ko‘ra mehnat va o‘yin bir-biridan farq qiladi. Mehnatda maqsad qo‘yiladi, uni amalga oshirish, natijaga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O‘yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi. O‘yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi. O‘yinda mehnat singari biror aniq natijaga eriilmaydi, ammo u mehnat singari bolalarga quvonch bag‘ishlaydi, ular o‘zlarida qonoqish hissini sezadilar. Kichik bog‘cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o‘z-o‘ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun

ancha mashhaqqatlari ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o‘rgatishda ko‘pincha o‘yin vaziyatlaridan foydalaniladi. Avvaliga bolalar o‘yin obrazi orqali mehnatga o‘rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o‘rganadilar. Asta-sekin bu yoshdagi bolalarda o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikma, malakalari shakllanib boradi.

Bolalar mehnatining muhim uning ma’lum maqsadga qaratilganligidir. Kichik bog‘cha yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga oid harakat bo‘lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi.

Faollik bolaga xos xususiyatdir. Ta’lim-tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiyлари: munosabatda bo‘lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyat, o‘yin, mehnat va o‘quv faoliyatlaridir.

Faoliyat turlarining o‘zi ijtimoiy-tarixiy tajribaning bo‘lagidir. U yoki bu faoliyatni o‘zlashtirayotib bola faollik ko‘rsatadi, shu bilan bir vaqtida shu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni egallab oladi. Buning asosida bolada har xil shaxsiy qobiliyat va xususiyatlar shakllanib boradi.

Ta’lim va tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida asta-sekin egallab boradilar.

Bolalarning har xil faoliyatlarni muvaffaqiyatli egallab olishlari asosan oilada, bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiya ishining qay darajada tashkil etilishiga bog‘liqdir.

Inson hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma’lum bir munosabatning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bola bilan bo‘ladigan hissiy, hissiy-



predmetli munosabatlaridayoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi.

Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga ham bog‘liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo‘ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni sekin-asta buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo‘l bilan bola buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatning o‘ziga xos tomonlarini egallab boradi. Bu vaqtida munosabatning o‘zi narsa va buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatga aylanib qoladi.

Bolaning narsa va buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatini tashkil etish bolaga dastlabki yoshidan boshlab oilada va maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiya va ta’lim berishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunday faoliyatlarda bolalar tarbiyachi rahbarligida narsa va buyumlarning xususiyatlari to‘g‘risidagi dastlabki bilimlarni, ular bilan bo‘ladigan harakatlar, tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash kabi eng oddiy jarayonlarni egallab oladilar. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar va ularning o‘yin hamda tasviriy faoliyatga o‘tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o‘z-o‘zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Bola jamoada o‘zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Bola taraqqiyotining mana shu bosqichida ular kattalarning ko‘rsatmasiz, mustaqil harakat qilishini xohlaydilar. Bolada xulq-atvor sababining paydo bo‘lishi va uni o‘z xohishiga bo‘ysundira olishi unda ongning shakllanganligidan dalolat beradi.

Agar boladagi faollik va mustaqillik kattalar ta’sirida uyg‘otilgan bo‘lsa, u holda 4-6 yoshli bolalar ancha mustaqil bo‘lib qoladilar va har xil faoliyatlarga tezda kirishib keta oladilar. Bunda bolalar ongliligining roli ortadi, u ba’zan hatto ijodiy xususiyat kasb etadi.

Bu davrdagi bolaning asosiy faoliyati bo‘lgan o‘yinda bolalar tarbiyachining rahbarligida har xil harakat usullarini, narsa va buyumlar to‘g‘risidagi bilimlarni, ularning sifat va xususiyatlarini bilib oladilar. Bolalar, shuningdek fazoviy, vaqt munosabatlarini, o‘xshashlik, tenglik kabi tushunchalarni ham egallab boradilar.

Birgalikda bajariladigan harakatli o‘yinlar orqali bolalar kishilar hayotidagi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni, kelishib harakat qilishni bilib oladilar, ularning tevarak-atrof to‘g‘risidagi tasavvurlari kengayadi.

Bu yoshdagи bolalarda o‘yin faoliyati bilan bir qatorda faoliyatning amaliy shakllari ham rivojlana boshlaydi: rasm yopishtirish, narsalar yasash va hokazo. Bular



bolalarda xayolni, amaliy tafakkurni, badiiy qobiliyatni, ijodkorlikni rivojlantirishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Muntazam ravishda berib boriladigan mehnat topshiriqlari bolalar faoliyatini ijtimoiy manfaatlarga bo‘ysundirishga, ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanishiga, mehnatdan kelgan umumiy natijadan quvonish kabi sifatlarni tarbiyalashga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoyev “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 -sonli qarori ( 09.09.2017 y)
2. D.O‘.Qarshiyeva o‘chirilgan fayllarni qayta tiklashda easy recovery dasturi imkoniyatlari // fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi issn: 2181-1776,P. 264-268
3. D. Qarshiyeva, O‘qituvchi kasbiy standartlarini tizimini takomillashtirishda mediasavodxonlikning roli va ahamiyati // Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 2021/6/11, P.104-106.
4. Q.D. Utkirjonovna, Improvement of information culture of teachers in the examination system // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal,2019, Pg. 43-46
5. Sh.A.Do‘stmuhamedova, Z.T.Nishonova va boshqalar. Yosh davrlari va 6. pedagogik psixologiya. T.: Fan va texnologiyalar 2013.
7. E.G‘oziev. Ontogenet psixologiyasi. Nazariy - eksperimental tahlil T.: 8. Noshir 2010.
9. 7. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www. Ziyonet.uz.